



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;
Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;
Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;
Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;
Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori;
Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;
Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;
Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;
G'aybullayev Otobek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;
Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;
Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;
Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;
Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Salaxutdinova Musharrafa Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;
Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;
Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;
Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.;
Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;
Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;
Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Saydullayev Shaxzod Alihanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);
Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;
Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;
Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasilisa Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich -siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 9-son (sentyabr, 2025). - 198 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li</i>	
THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA: THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS	9-13
<i>Xurramov Xamid Bobokul o'g'li</i>	
AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN?	14-18
<i>Zikirova Maxprat Soliyevna</i>	
HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI	19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА	26-38
<i>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</i>	
ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	39-46
<i>Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna</i>	
OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES IN TEXTILE ENTERPRISES	47-52
<i>Shixiyev Raxim Muhammedovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	53-60
<i>Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna</i>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI	61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i>	
BAHOUDDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI	67-70
<i>Yuldasheva Diloram Yuldashevna</i>	
O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI	71-74
<i>Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich</i>	
ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI	75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Ayimbetova Zamira</i>	
BADIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH VA TASNIFFLASHNING NAZARIY ASOSLARI	81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i>	
ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLARI	88-92
<i>Petrosyanç Эрнест</i>	
СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i>	
NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i>	
ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Firuza Muxitdinova</i>	
JAMIyat BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILIY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i>	
NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i>	
IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i>	
FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIYY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i>	
ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING QONUN İJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i>	
JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i>	
NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i>	
VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA’SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

12.00.00 - YURIDIK FANLAR - LAW

Received: 15 August 2025

Accepted: 30 August 2025

Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

**SOCIAL STABILITY AND PERSONAL DUTY:
ANALYTICAL REFLECTION ON THE CULTURE OF RESPONSIBILITY**

Mukhitdinova Firuza

Doctor of Law, Professor

Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the strong interrelation between societal stability and personal responsibility. The author discusses the culture of accountability not only as a legal norm but also as an ethical and philosophical concept. Based on Al-Farabi's "The Virtuous City", the principles of civic duty, justice, and moral leadership are examined. The article also explores international legal frameworks on civil service responsibility and outlines the current reforms in Uzbekistan aimed at making public service more humane and people-oriented.

Keywords: eration.

**JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH:
JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILIY MULOHAZA**

Muxitdinova Firuza

yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti

E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com

Orcid: 0000-0003-1721-0189

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat barqarorligi va shaxsiy burch tuyg'usi o'rtasidagi mustahkam bog'liqlik tahlil qilingan. Muallif javobgarlik madaniyatini nafaqat huquqiy, balki axloqiy va falsafiy tamoyil sifatida ham yoritadi. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari asosida fuqarolik mas'uliyati,adolat va ma'naviy rahbarlik mezonlari tahlil etiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba misolida davlat xizmatchilar mas'uliyatining huquqiy asoslari yoritilgan. O'zbekistonda davlat xizmatini insonparvar va xalqchil asosda isloh qilishning falsafiy va amaliy asoslari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: javobgarlik madaniyati, fozil jamiyat, Forobi, davlat xizmati, axloqiy burch, fuqarolik mas'uliyati, huquqiy islohotlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N17>

Mavzuning dolzarbliji: Jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotga erishish faqat huquqiy baza emas, balki fuqarolik ongi, axloqiy pozitsiya va shaxsiy mas'uliyat hissini yuksaltirishga bog'liq. Bugungi global va tez o'zgaruvchan dunyoda javobgarlik madaniyatini rivojlantirish barqaror ijtimoiy munosabatlar uchun muhimdir. Forobiyning merosi va xalqaro amaliyotdagi ilg'or tajribalar bu yo'lida mustahkam nazari va amaliy asos bo'la oladi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston jamiyatida mas'uliyat va javobgarlik madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor qaratildi. Bu faqat huquqiy normalar emas, balki fuqarolik burchi,

axloqiy qadriyatlar, faol fuqarolik pozitsiyasi, davlat va jamiyat oldidagi vijdonli munosabatni anglatadi.

Tadqiqot usuli: Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy huquqshunoslik, falsafiy-axloqiy tahlil, manbashunoslik va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Ilmiy manbalar va normativ hujjatlar tahlil qilindi, Forobiyning asarlari bilan zamonaviy huquqiy tajriba o'rtasida qiyosiy munosabat o'rnatildi.

Jamiyatning rivoji, barqarorligi va taraqqiyoti juda ko'p omillarga bog'liq bo'lsa-da, shaxsiy va ijtimoiy javobgarlik madaniyati shularidan eng asosiyalaridan biri sanaladi. Javobgarlik – bu jazodan qo'rqish emas, balki ongli tanlov, ichki burch, adolatlilik tamoyiliga sodiqlikdir.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ta'kidlaganidek, fozil jamiyat – bu bilim, axloq va mas'uliyat asosida tuzilgan jamiyatdir. Forobiya ko'ra, davlat rahbari (fozil podshoh) har bir fuqaroning kamolotini ko'zlab ish tutadi. Bu esa nafaqat rahbar, balki har bir fuqaro o'z burchi va mas'uliyatini anglab yashashini talab etadi. Forobiyning fozil shahrida fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmat, burchni ado etish, hamjihatlik, adolat va axloqiy mas'uliyat hukmron.

Bunday jamiyatda har bir shaxs o'z vazifasini anglaydi va unga amal qiladi. Uning bu xislati jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi. Eng katta qadriyat — ilm, adolat va axloq bo'ladi va bu qadriyatlar ham ulug'lanadi. Har bir rahbar — bilimdon va odil, oqil va dono bo'lishi fozillik kafolati bo'ladi. Har bir fuqaro — javobgar, sodiq va faol bo'ladi. Forobiyning ta'kidlashicha, fozil inson — bu aql va ma'rifat asosida ish yurituvchi, nafaqat shaxsiy manfaatlar, balki umumiyl yaxshilik yo'lida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Uningcha, haqiqiy yetakchi (fozil podshoh) nafaqat qonunlar ijrosini ta'minlovchi, balki o'zi namuna ko'rsatuvchi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy darajasini oshiruvchi shaxs bo'lishi kerak. Bu esa haqiqiy javobgarlik madaniyatini anglatadi. Javobgarlik madaniyati nafaqat huquqiy, balki axloqiy va falsafiy masala hamdir. Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar bizga mas'uliyatning faqat jazo emas, balki ma'rifat va burch asosi ekanini uqtirgan. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida faqat aqli va fozil rahbarlarga jamiyatni taraqqiy etkaza oladi, deb ta'kidlaydi. Unga ko'ra: hukmdorlar va ularning atrofidagilar ilm, vijdon va adolat bilan davlatni boshqarishi kerak, xizmat faqat mansab emas, balki qalb, aql va axloq mezoniga muvofiq bo'lishi shart. Demak, bugungi davlat xizmatchisida ham shunga mos umuminsoniy qadriyatlar bo'lishi lozim. Bu borada Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "*Davlat xizmatchisi avvalo xalq xizmatchisi bo'lishi kerak*"

Jahon tajribasi misoliga nazar tashlasak, davlat xizmatida qonunning ahamiyatini ko'rish mumkin. Tarixda davlat xizmatchilari mas'uliyatni yuksak darajada anglagan holda ish yuritgani borasida qator misollar keltirish mumkin. Masalan, Xitoyda Miloddan avvalgi V asrda qabul qilingan "Shen Yan qonunlari"da davlat amaldorlarining halolligi va xalq oldida javobgarligi alohida ta'kidlangan. Buyuk Britaniyada esa 1854-yilda Nortkot-Trevelyan islohoti natijasida davlat xizmatchilari uchun maxsus mas'uliyat mezonlari joriy etilgan.

Davlat xizmati sohasini huquqiy jihatdan birinchi tartibga solgan davlat – Fransiya hisoblanadi. 1789-yilda qabul qilingan "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"da lavozimga teng huquqda tayinlanish va davlat xizmatining javobgarlik tamoyillari belgilangan.

Davlat xizmati qonun yo'li bilan tartibga solingan ilk hujatlardan biri 19-asr oxirida Britaniyada qabul qilingan. Keyinroq Fransiya, Germaniya, Yaponiya va AQSH kabi davlatlarda ham xizmatchilarning yuridik maqomi aniq belgilab qo'yildi.

Masalan, Yaponiyada davlat xizmatchilari "oddiy xodim" emas, balki mamlakat taraqqiyoti uchun mas'ul intellektual elita sifatida qaraladi. Germaniyada esa "Beamte" tushunchasi orqali davlat xizmatchilari faqat ijrochi emas, balki xalq ishonchini oqlashi shart bo'lgan fuqarolar sifatida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida shunday deyiladi:

"Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Davlat xalq irodasini ifoda etadi va unga xizmat qiladi." Bu qoida, avvalo, davlat xizmatchilariga taalluqlidir. Chunki ular davlatni ifoda etadi, davlat orqali xalqqa xizmat qiladi. Demak, davlat xizmatchisi faqat ijro organining mansabdori emas, balki xalq oldida burch va mas'uliyat bilan harakat qiluvchi shaxs hisoblanadi. Javobgarlik madaniyati faqat huquqiy sohada emas, balki har bir fuqaroning shaxsiy va ijtimoiy hayotida namoyon bo'ladi. Ota-onal o'z farzandi oldida, o'qituvchi – o'quvchisi oldida, shifokor – bemor oldida, deputat – xalq oldida javobgar. Bu madaniyat qanchalik barkamol bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror va erkin bo'ladi. Javobgarlik madaniyati — bu har bir fuqaro, xizmatchi, ota-onal, yosh avlod o'z vazifasi va roli uchun shaxsan mas'ul ekanini anglaydigan va shu asosda faoliyat yuritadigan ijtimoiy ong shakli ekanini angladik. Uning mazmunida quyidagi qadriyatlar mujassam: intizom va fidoyilik, halollik vaadolatparvarlik, vijdonan ishlash va mas'ullik, vatanparvarlik va jamoatchilikka hurmat kabi insoniy qadriyatlar. Jamiyatda javobgarlik madaniyatining asosiy ko'rinishlariga esa, davlat xizmatchilarining vijdonan ishlashi ko'zga tashlandi. Har bir amaldor o'z xizmat burchiga mas'uliyat bilan yondashsa, korrupsiya yo'l qo'yilmaydi, xalq ishonchi mustahkamlanadi. Bu — boshqaruv samaradorligining negizi. Bu talablarga bugun ehtiyoj katta. Chunki mustaqillik arafasidagi bu mulohazalar, ayniqsa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida alohida ahamiyatga ega. Yangi O'zbekiston davlat xizmatini qayta tashkil etishda faqat funksional samaradorlik emas, balki javobgarlik va burch madaniyatini ham eng ustuvor mezon sifatida belgilamoqda. Jamiyatda mas'uliyatli shaxslar qanchalik ko'p bo'lsa, jamiyat shunchalik kuchli,adolatli va barqaror bo'ladi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchli munosabat ham aynan javobgarlik madaniyatining rivojiga bog'liq. O'zbekistondagi qonun ham aynan mana shu yondashuvni aks ettiradi: davlat xizmati — sharafli burch, ammo u katta mas'uliyatni ham talab qiladi. Yangi qonunga muvofiq, davlat xizmatchisi: fuqarolar manfaatini birinchi o'ringa qo'yishi, shaxsiy emas, jamoaviy va davlat ehtiyojlariga xizmat qilishi, korrupsiya qarshi qat'iy pozitsiyada turishi shartligi qat'iyan belgilangani. Bu huquqiy davlatda qonun ustuvorligini ya'ni, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlaydi. Bu faqat huquqiy norma emas, balki ma'naviy burch hamdir. Fuqarolarning davlatga ishonchi, ayni shu xizmatchilarning xolisligi va vijdonan faoliyati bilan bog'liq.

Shuni unutmaslik kerakki, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri — javobgarlik madaniyatidir. Davlat xizmatchisi o'z vazifasiga vijdonan yondashsa, albatta jamiyatda yuksalish bo'ladi. Davlat apparati samarali ishlaydi, Fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi ortadi. Byurokratiya vaadolatsizlik kamayadi. Ana shu talabni bajarish barcha uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, bu borada huquqiy asoslарimiz yetarli. Jumladan, 2022-yil 8-avgustda qabul qilingan "**Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-788)**

mazkur sohani huquqiy asosda to'liq shakllantirishga xizmat qildi. Unda xizmatchilarning maqomi, burch va majburiyatlari, tanlov asosida ishga qabul qilish, faoliyat samaradorligini baholash, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish va kasbiy etika masalalari qat'iy belgilangan. Qonunning kuchga kirishi — 2022-yil 10-noyabr — O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida sifat jihatidan yangi bosqich boshlangan kun sifatida tarixda qoldi. Mazkur qonunga ko'ra, davlat xizmatchisi — bu oddiy mansab egasi emas, balki davlatning ichki islohotlari, qonun ustuvorligi,adolat va xalq manfaatlari yo'lida faol harakat qiluvchi fidoiy shaxsdir. 2022-yilda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun davlat xizmatchisining huquqiy maqomini belgilash bilan birga, unga yuklatilgan axloqiy va kasbiy burchlarni ham aniq belgilab berdi. Qonunning mazmun-mohiyatini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi eng muhim burch va mas'uliyatlar alohida ta'kidlanadi: ya'ni davlat xizmatchisi Konstitutsiya va qonunlarga sodiq bo'lishi, o'z vazifalarini vijdonan va xolislik asosida bajarishi shart. U shaxsiy manfaatlarni emas, balki davlat va jamiyatning umumiy foydasini ko'zlashi kerak. Har qanday harakat yoki harakatsizlik davlat organining nufuziga putur yetkazmasligi shart.

Davlat xizmatchisi o'z xizmat mavqeysidan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasligi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, xizmat vakolatlarini beg'araz va xolis amalga oshirishi lozim. Bu esa korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarning asosi hisoblanadi. Jumladan, bu borada 2025-yil 19-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra, (fuqarolik xizmatiga oid) asosida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil etsak, xotin-qizlar ulushini 40%ga yetkazish (2030-yilgacha). nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhit yaratish, milliy kadrlar zaxirasida xotin-qizlar ulushini oshirish hamda inklyuziv muhit yaratish orqali barcha fuqarolarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash nazarda tutilgan.. Xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga maqsadli tayyorlash dasturlari yo'lga qo'yiladi. Bu albatta O'zbekistonda "Yangi O'zbekiston – yangi kadrlar" tamoyili va davlat xizmatidagi sifat o'zgarishlariga olib chiqadi. Qonunga muvofiq, har bir davlat xizmatchisi o'zining kasbiy salohiyatini muntazam oshirib borish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan shug'ullanishi shart. Bu maqsadda 2025-yil 1-sentyabrdan "Davlat xizmatchisi" mobil ilovasi joriy etilishi rejalashtirilgan. Bu ilova orqali xodimlar shaxsiy rivojlanish rejasini tuzadi, malaka oshiradi, takliflar kiritadi. Xizmatchilar daromadlari va mol-mulki to'g'risida deklaratсиya taqdim etishlari shart. Bu jamoatchilik nazoratini ta'minlash, shaffoflikni oshirish va davlatga ishonchni mustahkamlashning muhim usulidir.

Xizmatda odob va munosabat madaniyati alohida o'rinn tutadi. Unga ko'ra, xizmatchilar boshqa xodimlar, rahbarlar va fuqarolar bilan munosabatda ehtiromli, adolatli va kamtar bo'lishlari lozim. Qonun xizmat davomida va hatto undan keyin ham davlat sirlarini oshkor qilmaslik majburiyatini yuklaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqobatbardosh va samarali davlat xizmatini tashkil etish uchun xizmatchilarning malakasi va shaxsiy rivojlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamlı transformatsiya, jamiyat ehtiyojlari va jahon tendensiyalariga moslashish uchun davlat xizmatchilari doimiy ta'limga muhtoj. Shu bois ham, "**Life Long Learning**" – **hayot davomida ta'lim olish tamoyili yo'lga qo'yilgan bo'lib**, bu tamoyil Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlar davlat boshqaruvida joriy etgan strategik yondashuvdir. Unga ko'ra, xizmatchi faqat ishga kirishda emas, balki butun faoliyati davomida muntazam ravishda bilim va ko'nikmalarini oshirib borishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi [10; 70-b.] "Davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham, davlat fuqarolik xizmatchilarining o'zlariga zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirib borishiga qaratilgan malaka oshirish tizimining yagona qoidalarini belgilash vazifasi bejiz kiritilmagan. Zero, bu qadriyatlarimizda ham, ta'limotlarimizda ham ilgari surilgan g'oya bo'lib, Imom G'azzoliy ta'limni faqat yoshlik bilan chegaralamaydi, balki "ilm talab qilish inson uchun har daqiqada farz" deb ta'kidlagan. Davlat xizmatchisi uchun bu jumla ayniqsa muhim: har bir bilim o'z vaqtida foyda keltiradi. E'tibor, bering-a, Singapurda har bir davlat xizmatchisi uchun yiliga kamida 100 soat ta'lim olish majburiyati bor. Finlyandiyada davlat xizmatida hayot davomida ta'lim olish byudjeti xizmatchi boshiga aniq miqdorda belgilangan. O'zbekistonda 2024-yilda 20 ming nafar xizmatchi malakasini oshirgani va 2025-yilda bu ko'rsatkichni 35 ming nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Mazkur masalani tahlil etgan holda quyidagi takliflarni ilgari suraman:

Davlat fuqarolik xizmatchilari uchun **odob-axloq kodeksi** kuchaytirish davr talabidir. Ikkinchidan, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish bo'yicha **ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni joriy etish lozim. Uchinchidan**, Forobiy kabi sharq mutafakkirlari ta'limoti asosida **intellektual jamiyat modelini** joriy etish kerak.

Har bir xizmatchi o'zining salohiyatini doimiy yangilab borishi orqali nafaqat shaxsiy faoliyatini, balki davlat institutlari samaradorligini ham oshiradi; bu jarayon jamiyatda "javobgarlik madaniyati"ni mustahkamlaydi. "Hayot davomida ta'lim" tamoyili davlat xizmatini raqobatbardosh va innovatsion mexanizmga aylantiradi. Unutmaslik kerakki, davlat xizmatchisi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullan olmaydi, xususiy biznes subyektlarining muassisasi yoki rahbari bo'lolmaydi. Shuningdek, uning yaqin qarindoshlari bevosita bo'ysunuvchi lavozimlarda birga ishlay olmaydi. Bunday cheklovlar — xolislikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois ham, xalqaro hamjamiyatda Davlat xizmat kuni – sharaf va mas'uliyat ramzi sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, BMT tomonidan 23-iyun — Davlat xizmati kuni sifatida e'lon qilingan. O'zbekistonda ham bu sana munosabati bilan davlat xizmatining qadri, mas'uliyati va fidoyiligi haqida keng jamoatchilikka yetarlichcha ma'lumot berilishi kerak. Bu xizmat obro'sini oshiradi. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri"da aytadi: "Rahbar adolatli, aqli va pok niyatli bo'lsa, xalq ham shunday bo'ladi". Bugungi davlat xizmatchisi ham ana shu fozil rahbar va xizmatchi obraziga mos bo'lishi lozim. Uning burchi — nafaqat farmonni bajarish, balki mamlakatning ertangi kuni uchun yuz minglab insonlar taqdiriga daxldor qarorlarda ishtirok etishdir. Shu bois, davlat xizmatchisi o'z ishini sidqidildan bajarishi mas'uliyatli burchdir. Shu burchni sidqidildan ado etganlargina haqiqiy xalq xizmatchisiga aylanadi. Mamlakatda islohotlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun davlat — imkoniyat yaratuvchi, xalq esa — mas'uliyatni his etuvchi faol fuqaro bo'lishi kerak. "Yangi ijtimoiy shartnoma" degan g'oya aynan shu o'zaro munosabatga asoslangan: Davlat islohot qiladi — xalq mas'uliyatni his etadi. Fuqarolik jamiyatining tayanchi — javobgarlikni anglagan, o'ziga ishongan va o'z burchiga yuksak e'tibor bilan yondashadigan shaxslardir. Mustaqillik — nafaqat davlat ramzi, balki yangi kadrlar, yangi siyosiy madaniyat va davlat boshqaruvida yangi yondashuvdir. Davlat xizmatchilari — shu o'zgarishlarni amalga oshiradigan asosiy kuch. Ularning burchi, mas'uliyati va fidoyiligi qanchalik yuksak bo'lsa, xalqning ham yuragi shunchalik xotirjam bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

- Аль-Фараби [1; 12-б.]. Трактаты. – Алматы: Фылым, 1993. – 336 с.

2. Антология мировой политической мысли [2; 45-б.]. В 5 т. Т.1: Зарубежная политическая мысль: Истоки и эволюция. – М.: Мысль, 1997. – 815 с.
3. Axmedov, Sh. A. [3; 33-б.] Davlat xizmati: nazariy va amaliy asoslari. – Т.: Iqtisodiyot, 2022. – 204 б.
4. Bekmurodov, A., Komilov, N. [4; 21-б.] Davlat fuqarolik xizmati va javobgarlik madaniyati. – Т.: Yurist nashriyoti, 2023. – 168 б.
5. Бобоҷонов, Ш. Ю. [5; 38-б.] Давлат бошқаруви тизимида масъулият маданияти. // Юриспруденция журнали. – 2023. – №4. – Б. 44–50.
6. Конституцияи Ҷумҳурии Ўзбекистон [6; 10-б.]. Қабул карда шудааст 8 декабри соли 1992 (тағирот ва қўшимчалар билан, 2023 йил ҳолатига).
7. Mirzayev, H. [7; 29-б.] Davlat xizmati va kadrlar siyosati: huquqiy jihatdan yondashuv. – Т.: “Norma”, 2020. – 256 б.
8. OECD [8; 61-б.]. Government at a Glance 2023. – Paris: OECD [8; 61-б.] Publishing, 2023. – <https://doi.org/10.1787/1f80035e-en>
9. The Northcote-Trevelyan Report [9; 7-6.]. Civil Service Reform. London, 1854.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi [10; 70-б.] “Davlat fuqarolik xizmatida gender va inklyuzivlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonuni [11; 51-б.]. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – 2022. – №30. – modda 663.
12. Хитой қадимий ҳуқуқ манбалари [12; 26-б.]. – Таржимон ва шархловчи: Х.Қурбонов. – Тошкент: “Фан”, 2005. – 215 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).